

## MAQOLANING BOSH SARLAVHASI QALBIM TO'RIDA-MUHAMMAD YUSUF

**Suvonova Gulbar Maqsadali qizi**

*Toshkent Shahar Chilonzor tumani Gavhar ko'chasi 1-A uy*

**Annotatsiya:** Quyidagi maqola O'zbek adabiyotida xalq yuragidan chuqur joy olgan ijodkor shoir Muhammad Yusuf haqidadir. Uning she'riyatga olib kirgan yangi uslublari va o'zgarishlari to'g'risida bayon etiladi. Ushbu yoritilgan manbaalardan siz Muhammad Yusuf O'zbek xalqining yuragida abadiy yashovchi shoir ekanligiga yana bir bora amin bo'lasiz.

**Kalit so'zlar:** she'riyatga oshnolik, hayotiy kechinmalar, yurakdan chiqqan satrlar, adabiy meros.

### KIRISH

Muhammad Yusuf - O'zbek adabiyotining eng yorqin shoirlar qatoridan bo'lib, u o'zining samimiy, xalqona va ta'sirchan she'rlari bilan minglab kitobxonlar-u she'riyatga oshno qablardan joy olgan. Uning yozgan she'rlarida O'zbek millatining Vatanga bo'lgan milliy g'ururi, yurtga muhabbatini va insoniy tuyg'ularni juda go'zal tarzda ifoda eta olgan. Shoirning she'rlari xalq tilida yodlanadi, kuyga solinib, qo'shiq va aytimlarga aylanadi.

### ASOSIY QISM

Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprel kuni Andijon viloyatining Marhamat tumanida tavallud topgan. Bolalik kezaridanoq adabiyotga oshno bo'lib, o'zining ilk she'rlarini yoza boshlagan. U Toshkent Davlat Universitetining filologiya fakultetida tahsil olib, adabiyot olamiga kirib kelgan. Muhammad Yusuf o'z hayoti davomida turli nashriyotlar va madaniy tashkilotlarda ishlagan. Uning mehnat faoliyatlari quyidagilardan iborat:

- ☐ G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida muharrir
- ☐ "Yosh gvardiya" nashriyotida muharrir
- ☐ O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida faoliyat yuritgan
- ☐ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasida tahsil olgan
- ☐ O'zbekiston xalq shoiri unvonini olgandan so'ng, mamlakat madaniy hayotida faol ishtirok etgan

Muhammad Yusufning birinchi she'ri 1976-yilda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftaligida chop etilgan. Ilk she'riy to'plami "Tanish teraklar" bo'lib 1985-yilda nashr etilgan. Bu to'plam shoirning adabiyotga ilk qadamlarida qog'ozga tushirilgan bo'lib, unda tabiat tasviri, yoshlik damlari hamda iliq tuyg'ular jamlangan. Uning ijod namunalari juda tez fursatda tanildi, chunki u xalqining dardini, tuyg'ularini va orzu-istaklarini o'z misralarida mohir qalam tebratib aks ettirgan. Shoirning ijodi 1980-yillarda keng tanila boshlagan. U

o'zining soddaligi, xalq dardi va milliy ruhni aks ettirgani bilan ajralib turadi. Uning mashhur she'riy to'plamlari quyidagilardir:

- ☐ "Ishonch" (1985)
- ☐ "Uyqudagi qiz"(1987)
- ☐ "Xalqim"(1991)
- ☐ "Ko'zlarimda kecha yarmi"(1994)
- ☐ "Erk"(1996)

Shoir she'rlarida insoniy qadriyatlar, erk va ozodlik g'oyalari, Vatanga bo'lgan muhabbat ustuvor mavzular bo'lgan va o'z xususiyatlari bilan ajralib turgan:

1.Samimiylik va xalqchil ohang - uning she'rlari sodda, tushunarli, biroq qalblarga yaqin.

2.Vatanparvarlik - u milliy g'urur, tarix va Vatan tuyg'ularini jonli tasvirlagan.

3.Haqiqatparvarlik - uning ijodi adolat va rost so'zga asoslangan.

4.Ravonlik va musiqiylik - she'rlari qo'shiq bo'lishi bejiz emas, chunki ular o'ta ravon va qalbning tub tubidan chiqadi.

5.Xalq ruhi - uning she'rlari xalq dardini, quvonch-u tashvishlarini o'zida mujassam etgan.

Muhammad Yusuf insoniy tuyg'ularni yurakdan tasvirlaydi. Jumladan:

"Ulug'imsan, Vatanim" - bu she'r O'zbekiston mustaqilligi ruhini tarannum etib, xalq qalbini chuqur zabt etgan.

"Bobomning duosi" - ota-bobolarimizning duolari, nasihatlari ularning donishmandligi va milliy qadriyatlar haqida yozilgan ta'sirli she'r.

"Ko'zlarimda kecha yarmi" - inson qalbidagi iztirob va kechinmalarni aks ettirgan.

Muhammad Yusuf 2001-yil 29-iyulda Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanida 47 yoshida vafot etdi. Shoir ijodi ayni gullab yashnagan paytda, she'riyat muxlislari bilan uchrashish maqsadidagi ijodiy safarida bu hayotdan ko'z yumgan va Andijonda dafn etilgan. Garchi umrining qisqa bo'lishiga qaramay u O'zbek she'riyatida unitilmas iz qoldirdi. Hozirgi kunda ham uning she'rlari yoshlarga ilhom bag'ishlamoqda, darsliklari o'rganilmoqda va kuy-navolarda she'rlari baralla jaranglamoqda. Shoirning adabiyot rivojiga qo'shgan xissasi munosib baholanib, u O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abduganiyevich Karimov farmoniga binoan "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan hamda " O'zbekiston xalq shoiri " unvoniga sazovor bo'lgan.

### **XULOSA**

Muhammad Yusuf - qalbida chechak ochgan she'riyat egasi, millat iftixori.Uning ijodi xalq qalbida yashashda davom etadi, she'rlari esa ilmga tashna yangi avlodlarga ilhom bag'ishlashdan charchamaydi. Uning adabiy merosi avloddan-avlodga o'tib, o'zbek millatining ajralmas madaniy boyligiga aylangan. Adib she'rlari biz bilan yashaydi, biz bilan birga nafas oladi va yosh kitobxonlar-u adabiyot oshnolariga vatanparvarlik ruhini bahsh etadi. Shoirning ijodi abadiy yashaydi va barchamiz uchun milliy g'urur manbai bo'lib qoladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:**

1. Arboblar.uz
2. Vikipediya.org
3. ziyouz. com
- 4.kitobxon.uz